



UY QAMOG'I EHTIYOT CHORASI QO'LLASH BO'YICHA  
UZOQ SHARQ DAVLATLARI TAJRIBASI

**Abdullayev Diyor Ibodillayevich**

*Toshkent davlat yuridik*

*Universiteti mustaqil izlanuvchisi*

**Annotatsiya:** *Milliy qonunchiligimizga ko'ra, uy qamog'i boshqa jinoyat protsessual ehtiyot choralariga nisbatan yangi huquqiy institut hisoblanishini inobatga olgan holda, mazkur maqolada muallif tomonidan jinoyat-protsessual ehtiyot choralarining umumiy tavsifi, uy qamog'ining mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatlarini xorijiy mutaxassislar va mahalliy tadqiqotchilar fikrlarini qiyosiy tahlil qilish orqali atroflicha yoritib berilgan. Xususan, uy qamog'i ehtiyot chorasi qo'llash bo'yicha Uzoq Sharq davlatlari: Xitoy, Tayvan, Yaponiya va Janubiy Koreyaning qonunchiligi qiyosiy-huquqiy tahlil qilinib, ularning o'ziga xos jihatlari bayon etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *jinoyat protsessi, ehtiyot choralarini, uy qamog'i, taqiqlar (cheklovlar), Xitoy jinoyat-protsessual qonuni, Yaponiya, Tayvan, Janubiy Koreya.*

**Annotation:** *Considering that house arrest is a relatively new legal institution compared to other criminal procedural precautionary measures under our national legislation, this article provides a comprehensive analysis of the general characteristics of criminal procedural precautionary measures and the scientific-theoretical aspects of house arrest. The study employs a comparative analysis of views from foreign experts and local researchers. Specifically, the article examines the application of house arrest in East Asian countries, including China, Taiwan, Japan, and South Korea, through a comparative legal analysis, highlighting their distinctive features.*

**Keywords:** *criminal process, precautionary measures, house arrest, prohibitions (restrictions), Chinese criminal procedural law, Japan, Taiwan, South Korea.*

Ilmiy tadqiqotlar va rasmiy xabarlarda O'zbekiston qonunchiligida jinoyat protsessual ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i instituti xorijiy mamlakatlarga o'xshash tarzda joriy etilganligi haqidagi iddaolar juda keng tarqalgan. Ko'pgina protsessualistlar ushbu fikrga nafaqat rozi bo'lishadi, balki bunday xulosani asoslashga harakat qilishadi.

Fikrimizcha, milliy qonunchiligimizda uy qamog'ini qo'llash bilan bog'liq qoidalar sud-huquq tizimi nisbatan yaqin bo'lgan davlatlar (misol uchun: Rossiya, Qozog'iston, Tojikiston va b.) jinoyat protsesual qonunchiligidagi normalarga o'xshash bo'lishi mumkin, biroq aksariyat rivojlangan Uzoq sharq mamlakatlari (Xitoy, Singapur, Yaponiya, Janubiy Koreya va b.) jinoyat protsesual qonunchiligidan tubdan farq qiladi.

Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasi (XXR) jinoyat protsesual qonunchiligida uy qamog'i ehtiyot chorasi aynan bizdagi kabi alohida huquqiy tushuncha sifatida aniq belgilanmagan,





ammo qonun hujjatlarida ushbu ehtiyot chorasiga yaqin bo‘lgan “Kafolat”, “kafillik va yashash joyida kuzatuv” nazarda tutilgan.

Shaxsni sudgacha ozodlikda qolishini anglatuvchi ushbu yashash joyida kuzatuv ostiga olishga doir qoidalarning asosiy qismi XXRning Jinoyat-protsessual qonuni (keyingi o‘rinlarda Qonun)ning “Majburlov choralari” deb nomlangan VI bobi 66-79-moddalarida keltirilgan<sup>63</sup>.

Xususan, Qonunni 66-moddasida “Xalq sudlari, xalq prokuraturalari va jamoat xavfsizligini ta’minlash organlari jinoyat sodir etishda gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchini tergov yoki sud jarayonida turar joy kuzatuv (ya’ni, yashash joyida nazorat ostida saqlash)ga olishi, kafolat bilan ozod etishlari mumkinligi qayd etilgan.

XXRda Xalq sudlari, xalq prokuraturalari va jamoat xavfsizligi organlari gumon qilinuvchini yoki sudlanuvchini quyidagi holatlardan birortasi bo‘lgan taqdirda qo‘shimcha tergovga qadar kafolat bilan ozod qilishi mumkin:

1) ularga qisqa muddatli hibsga olish yoki qo‘shimcha jazo sifatida turar joy kuzatuvini mustaqil (ya’ni, asosiy jazo sifatida) qo‘llash mumkin bo‘lsa;

2) uzoq yoki undan ko‘p muddatga hukm qilinishi mumkin bo‘lganlarni tergovda kafolat evaziga ozod qilish jamiyat uchun xavf tug‘dirmasa;

3) og‘ir xastalikka uchragan va o‘ziga g‘amxo‘rlik qila olmaydigan, homilador bo‘lgan yoki hozirda o‘z chaqalog‘ini emizayotganlar va keyingi tergovgacha kafolat evaziga ozod qilish jamiyat uchun xavf tug‘dirmasa;

4) qamoqqa olish muddati tugallangan, lekin ish hali ham davom etayotgan va keyingi tergovgacha kafolat evaziga ozod etishni qabul qilish zarur bo‘lgan hollarda.

Jamoat xavfsizligi organlari qo‘shimcha tergovni kutayotganda kafolat asosida ozod qilishni ta’minlaydi.

XXRning Jinoyat-protsessual qonuni 68-69-moddalariga ko‘ra, “Gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchini qo‘shimcha tergovgacha kafolat bilan ozod qilish to‘g‘risida qaror qabul qilgan xalq sudlari, xalq prokuraturasi va davlat xavfsizligi organi gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchiga kafil yoki kafillik depozitini taqdim etishni buyuradi”.

Kafillar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- jinoyatda ishtirokchi bo‘masligi;
- kafilning vazifalarini bajarish qobiliyatiga ega bo‘lish;
- siyosiy huquqlarga ega, hech qanday cheklovlar va jismoniy nuqsoni bo‘lmasligi;
- doimiy turar joy va daromad ega bo‘lishi.

Qonunda bilan kafillar quyidagi majburiyatlar yuklatilishi belgilangan:

1) Kafolatlangan shaxslar tomonidan ushbu Qonunning 71-moddasi qoidalari rioya etilishini nazorat qilish;

---

<sup>63</sup> Criminal Procedure Law of the People's Republic of China. (2018), // [https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/#\\_Toc528744274](https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/#_Toc528744274)





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



2) agar kafolatlangan shaxs ushbu Qonunning 71-moddasi qoidalarini buzishi mumkinligi yoki allaqachon buzganligi aniqlansa, darhol ijro organiga xabar berish;

Kafolatlangan shaxs ushbu Qonunning 71-moddasi qoidalarini buzgan va kafil o'zining kafillik burchini bajarmagan taqdirda, kafil jarimaga tortiladi, agar bu jinoyat tarkibi bo'lsa, qonun hujjatlariga muvofiq jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Qonunning 71-moddasiga ko'ra, tergovda kafillik asosida ozod etilgan gumon qilinuvchi va sudlanuvchilar quyidagi qoidalarga rioya qilishlari shart:

- 1) Majburiy ijro organining ruxsatisiz o'z shahri yoki tumanini tark etmaslik;
- 2) 24 soat ichida manzil, ish joyi yoki aloqa ma'lumotlarining o'zgarishi to'g'risida huquqni muhofaza qiluvchi organga xabar berish;
- 3) hibsga olish to'g'risidagi order berilganda darhol kelish;
- 4) hech qanday tarzda guvohlarning ko'rsatmalarini buzmasligi kerak;
- 5) dalillarni yo'q qilmasligi yoki xostalashtirmasligi yoki guvohlar bilan til biriktirmasligi kerak.

Ishning holatlaridan kelib chiqib, xalq sudlari, xalq prokuraturasi va davlat xavfsizlik organlari keyingi tergovgacha kafolat bilan ozod qilingan gumon qilinuvchiga yoki sudlanuvchiga quyidagi qoidalardan bir yoki bir nechtasiga rioya qilishni buyura oladi:

- 1) belgilangan joylarga kirmaslik kerak;
- 2) belgilangan shaxslar bilan uchrashmaslik yoki ular bilan muloqot qilmaslik;
- 3) belgilangan faoliyat bilan shug'ullanmasligi kerak;
- 4) Pasportlar yoki boshqa kirish/chiqish hujjatlari va haydovchilik guvohnomalarini saqlash uchun ijro etuvchi organga berishi lozim.

Ushbu qoidalarini buzgan gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchilarning kafillik depoziti qisman yoki to'liq musodara qilinadi hamda turli holatlarga ko'ra, gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchi aybiga iqrorlik xati yozish, yangi kafolat depozitini yoki kafilni taqdim etish yoki turar joy kuzatuviga joylashtirilishi yoxud hibsga olinishi mumkin.

Hibsga olinishi kerak bo'lgan, biroq kafolat bo'yicha ozod qilingan jinoyatchi yoki ayblanuvchilar belgilangan qoidalarni buzsa, birinchi navbatda qamoqqa olinishi mumkin.

Keyingi tergov qarorigacha kafillik bo'yicha ozod qilish uchun kafillik depozitining miqdori sud faoliyatini normal olib borishni ta'minlash zaruratini, kafolat bo'yicha ozod qilingan shaxs tomonidan jamiyatga tahdidlar, turi va xususiyatini, ish bo'yicha tayinlanishi mumkin bo'lgan jazoning og'irligi va kafolat bilan ozod qilingan shaxsning moddiy ahvoli kabilarni har tomonlama hisobga olgan holda belgilanadi (XXR Qonunining 72-moddasi).

Kafolat depozitini taqdim etuvchi shaxslar kafolatni ijro etuvchi organ tomonidan belgilangan bankdagi maxsus hisob raqamiga qo'yadi.

XXR Qonunining 74-75-moddalariga asosan "Xalq sudlari, xalq prokuraturalari va jamoat xavfsizligi organlari hibsga olish talablariga javob beradigan va quyidagi holatlardan biriga ega bo'lgan gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchilarni turar joy kuzatuviga qo'yishlari mumkin:



- 1) jiddiy kasallikdan aziyat chekuvchi va o‘zlariga g‘amxo‘rlik qila olmaydiganlar;
- 2) homilador ayollar yoki emizikli farzandini bor ayollar;
- 3) o‘zlariga g‘amxo‘rlik qila olmaydigan shaxslarning yagona qarovchilari;
- 4) Uy-joy nazoratini qo‘llashni ko‘proq moslashtiradigan boshqa maxsus vaziyatlar yoki ishlarni ko‘rib chiqish ehtiyojlari tufayli;
- 5) Hibsga olish muddati tugagan, lekin ish to‘liq hal etilmaganligi sababli turar joy nazoratini qo‘llash zaruriyati mavjud bo‘lgan.

Kafillik bo‘yicha ozod qilish talablariga javob beradigan, kafil yoki kafillik depozitini taqdim eta olmaydigan gumon qilinuvchilar yoki sudlanuvchilar turar joy kuzatuviga olinishi mumkin.

Yuqoridagilarga asoslanib shuni ta’kidlash joizki, bir vaqtning o‘zida ushbu davlatda ehtiyot choralari ko‘rinishidagi uchta davlat majburlash choralari qo‘llaniladi: kafillik va yashash joyidagi kuzatuv va garov. Shuni ham ta’kidlash kerakki, ushbu ehtiyot choralari jinoyat sodir etgan mansabdor shaxslarga nisbatan qo‘llash o‘ziga xos xususiyatga ega. Ular birinchi bosqichda maxsus qo‘riqlanadigan mehmonxonalariga uy qamog‘ida bo‘lgani kabi joylashtiriladi, u yerda mahkumlar xonalarda saqlanadi va tashqariga chiqmaydi. Shuningdek, Xitoy Xalq Respublikasida cheklovning uchta darajasi mavjud: eng zaifi “Juju”, ya’ni o‘z mahallasi tomonidan amalga oshirilgan cheklov hisoblanadi<sup>64</sup>.

Yashash joyida kuzatuv ostiga olingan shaxs tomonidan qoidalariga amal qilinishi ustidan nazoratni jamoat xavfsizligi organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Yashash joyida kuzatuv ostiga olingan gumon qilinuvchi va sudlanuvchilar quyidagi qoidalariga rioya qilishlari shart:

- 1) Majburiy organning ruxsatisiz turar joy kuzatuvini belgilangan joyni tark etmaslik kerak;
- 2) Majburiy organlarning ruxsatisiz boshqalar bilan uchrashmasligi yoki muloqot qilmasligi;
- 3) chaqiruv to‘g‘risidagi xabarnoma berilganda darhol kelish;
- 4) hech qanday tarzda guvohlarning ko‘rsatmalarini buzmasligi kerak;
- 5) dalillarni yo‘q qilmasligi yoki xostalashtirmasligi yoki guvohlar bilan til biriktirmasligi kerak;
- 6) pasportlarni yoki boshqa kirish va chiqish hujjatlarini, shaxsiy guvohnomalarini yoki haydovchilik guvohnomalarini saqlash uchun ijro etuvchi organga topshirish.

Agar kuzatuv ostidagi gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchi yuqoridagi qoidalarini buzsa va vaziyat jiddiy bo‘lsa, ular hibsga olinishi mumkin; hibsga olish zarurati tug‘ilganda gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchi birinchi navbatda qamoqqa olinishi mumkin (XXR Qonunining 77-moddasi).

---

<sup>64</sup> V.M.Xarzinova va M.M.Gutov, Особенности применения домашнего ареста в уголовном процессе зарубежных стран, ПРАВО И УПРАВЛЕНИЕ – журнал, № 11-2022 // <https://shorturl.at/tucbz>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Qonunning 78-moddasida Yashash joyida kuzatuv ostiga olingan shaxs tomonidan qoidalarga amal qilinishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchi ustidan elektron monitoring, rejadan tashqari tekshirish va boshqa kuzatuv usullaridan foydalanishi mumkin, tergov davrida gumon qilinuvchining xabarlar aloqa vositalari orqali kuzatilishi mumkin.

Yashash joyida kuzatuv muddati 6 oydan oshmasligi kerak (XXR Qonunining 79-moddasi).

Gumon qilinuvchi yoki sudlanuvchi yashab turgan joyida turar joyini kuzatish amalga oshiriladi, doimiy yashash joyiga ega bo'lmaganlar uchun u belgilangan joyda amalga oshirilishi mumkin. Agar milliy xavfsizlikka tahdid soluvchi jinoyat yoki terrorchilik faoliyatida gumon qilinsa va yashash joyidagi ijro tergovga to'sqinlik qiladigan bo'lsa, yuqoridagi darajadagi jamoat xavfsizligi organining roziligi bilan ijro belgilangan joyda amalga oshirilishi mumkin. Biroq, ijro hibsonada yoki maxsus ish yuritish joyida bo'lmasligi kerak (XXR Qonunining 75-moddasi).

XXR Qonunining 34-moddasi ko'ra, gumon qilinuvchi birinchi marta so'roq qilingan yoki unga nisbatan birinchi bo'lib majburlov choralari qo'llanilgan kundan boshlab, u himoyachi olishga haqli. Tergov organlari jinoyatda gumon qilinayotgan shaxslarni birinchi marta so'roq qilishda yoki ularga nisbatan majburlov choralarni qo'llashda gumon qilinuvchiga himoyachi olish huquqi to'g'risida xabar berishlari shart. Xalq prokuraturasi ko'rib chiqish uchun topshirilgan jinoiy javobgarlikka tortish haqidagi ish materiallarini olgan kundan e'tiboran uch kun ichida gumon qilinuvchi shaxsga ularning himoyachi olish huquqiga ega ekanligi haqida xabar beradi.

Yashash joyida kuzatuv ehtiyot chorasini amalga oshirish to'g'risidagi qaror va uning ijro etilishi qonuniyligini xalq prokuraturasi nazorat qiladi.

Qonuning 76-moddasiga muvofiq, belgilangan joyda turar joyini kuzatish muddati hukmdan chegirib tashlanadi. Nazorat ostidagi ozodlikdan mahrum qilish jazosidan turar joy kuzatuvda o'tkazilgan har bir kun uchun bir sutka, qisqa muddatli qamoqqa olish yoki ozodlikdan mahrum qilish jazosiga hukm qilingan shaxslar uchun — turar joy kuzatuvda bo'lgan har ikki kun uchun bir kun chegirib tashlanadi.

**Tayvan** jinoyat protsessual qonunchiligiga ko'ra uy qamog'i ehtiyot chorasi sifatida shaxsni sud yoki tergovgacha qamoqqa olish hibsonasiga emas, balki o'z yashash joyiga qamab qo'yishni nazarda tutadi. Kontsepsiya jamoat xavfsizligi masalalari va ayblanuvchilarning aybsizlik prezumpsiyasini muvozanatlash uchun ishlab chiqilgan<sup>65</sup>. Tayvanda uy qamog'ini qo'llash konstitutsiyaviy huquqlar va qonuniy kafolatlarni ko'rib chiqishni o'z ichiga olgan murakkab masaladir. Ushbu amaliyot atrofidagi qonunchilik bazasini tushunish uchun Tayvanning huquqiy tizimi va uning tarixiy kontekstini o'rganish kerak.

---

<sup>65</sup> Phillips S.D. "Between Assimilation and Independence: The Taiwanese Encounter the Modern World." Stanford University Press. (2003).





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



Tayvanda uy qamog‘ining kelib chiqishini turli ma‘muriyatlar ostidagi huquq tizimining evolyutsiyasidan kuzatish mumkin. Tayvanning zamonaviy huquqiy tizimiga ham Xitoy, ham Yaponiya huquqiy an‘analari ta‘sir ko‘rsatgan. Yaponiya mustamlakachilik davrida (1895-1945) “cheklangan yashash joyi” deb nomlanuvchi uy qamog‘i tushunchasi mustamlakachilikka qarshi chiqqan siyosiy dissidentlar (norozilik namoyishi o‘tkazuvchi) va faollar uchun jazo chorasi sifatida ishlatilgan.

Ikkinchi jahon urushidan keyin Tayvan Xitoy Respublikasi hukumatiga qaytarildi. Keyinchalik, Xitoy qonunlari ta‘siri ostida, uy qamog‘i yana qaytadan joriy etilgan va huquqiy hujjatlariga kiritilgan. Uy qamog‘idan ehtiyot chorasi sifatida foydalanish bu davrda Tayvan jinoiy odil sudlov tizimida alohida ahamiyat kasb etgan.

Tayvandagi zamonaviy sud tizimi uy qamog‘ini qo‘llashdan ko‘ra boshqa profilaktika choralarini qo‘llashni afzal ko‘radi.

Tayvanda uy qamog‘ining asosiy huquqiy qoidalarini Jinoyat-protsessual kodeksida, xususan, hibsga olish va profilaktika choralariga oid bo‘limlarda topish mumkin. Ushbu qoidalar uy qamog‘ini qo‘llash mumkin bo‘lgan asoslar, muddatlar va shartlarni belgilaydi<sup>66</sup>.

Jinoyat-protsessual kodeksi Tayvanda jinoiy protsessual holatlarni tartibga soluvchi asosiy qonun bo‘lib, jinoiy tergov va taqiqlar qanday olib borilishi haqida ko‘rsatmalar beradi. Uning 93-moddasi sudlarga ayblanuvchining qochishi, keyingi jinoyatlar sodir etishi, dalillarni buzishi yoki tergovga to‘sqinlik qilishi mumkinligiga ishonish uchun aniq asoslar mavjud bo‘lganda, shaxsga nisbatan cheklov choralarini, shu jumladan qamoq yoki uy qamog‘ini qo‘llash huquqini beradi. Ayblanuvchi yoki gumon qilinuvchi, order bilan yoki ordersiz hibsga olingan shaxs darhol so‘roq qilingach, tergov jarayonida prokuror ayblanuvchini yoki gumon qilinuvchini so‘roqdan keyin qamoqqa yoki uy qamog‘iga olish zarur deb hisoblasa, ayblanayotgan jinoyat sodir etilganligi to‘g‘risidagi faktlar va tafsilotlar, qonuniy asoslar, dalillar va qamoqqa olish sabablari ko‘rsatilgan iltimosnoma, tayyorlangan yozma nusxalar, ish materiallar va dalillar hibsga olingandan keyin 24 soat ichida, sanksiya yoki sanksiyasiz qamoqqa olish uchun tegishli sudga taqdim etilishi kerak.

Uy qamog‘i odatda sudgacha qamoqqa olishning kamroq cheklangan muqobili hisoblanadi va faqat zarurat tug‘ilganda va ishning holatlariga mutanosib bo‘lgandagina qo‘llash uchun mo‘ljallangan. Tayvan qonunchiligiga ko‘ra uy qamog‘ini qo‘llash shartlari uy qamog‘ini qo‘llash masalasini ko‘rib chiqayotganda, sud bir nechta omillarni, jumladan, da‘vo qilingan jinoyatning og‘irligini, gumonlanuvchining qochish xavfini, ayblanuvchining sudlanganligini, jamoat xavfsizligiga va davom etayotgan tergovga ta‘sirini hisobga olishi kerak. Bundan tashqari, sud garov, elektron monitoring yoki sayohatni cheklash kabi muqobil choralar sudlanuvchining sudga kelishini ta‘minlash va boshqa jinoiy faoliyatning oldini olish uchun yetarli bo‘ladimi yoki yo‘qligini ham ko‘rib chiqishi kerak.

<sup>66</sup> Code of Criminal Procedure, Taiwan (amended on January 15<sup>th</sup>, 2020). // <https://law.moj.gov.tw/ENG/LawClass/LawAll.aspx?pcode=C0010001>



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Uy qamog'ida bo'lgan shaxslar uchun kafolatlar, uy qamog'i ostidagi shaxslarning huquqlarini suiiste'mol qilishning oldini olish va himoya qilish uchun Tayvanning huquqiy tizimi bunday holatda bir nechta kafolatlarni o'z ichiga oladi:

*Sud tekshiruvi:* uy qamog'ini qo'llash to'g'risidagi qaror sud tomonidan tekshirilishi kerak. Agar sudlanuvchi yoki ularning qonuniy vakillari chora asossiz yoki holatlarga mutanosib emas deb hisoblasa, ular hal qiluv qaroriga sud orqali e'tiroz bildirishga haqli.

*Davomiylik:* uy qamog'i muddatsiz bo'lishi kerak emas. JPK chora-tadbirlar faqat maqsadga erishish uchun zarur bo'lgan vaqtdan oshmasligi kerak bo'lgan oqilona muddatga qo'llanilishi kerakligini belgilaydi<sup>67</sup>.

*Advokatga bo'lgan huquq:* uy qamog'ida bo'lgan shaxslar advokat olish huquqiga ega va ularning advokatlari hibsdan bo'lish davrida ular bilan muloqotda bo'lishlari mumkin. Bu ularning huquqlari yetarli darajada ifodalanishi va himoya qilinishini ta'minlaydi.

*Shikoyat qilish huquqi:* Agar sudlanuvchining uy qamog'ini bekor qilish to'g'risidagi iltimosi rad etilsa, ular ikkinchi marta ko'rib chiqish uchun yuqori sudga shikoyat qilishlari mumkin.

*Uy qamog'ining shartlari:* Sud ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i qo'llangan paytida muayyan shartlarni belgilashi mumkin, masalan, aloqa, internetga kirish yoki ayrim shaxslar bilan aloqada bo'lish cheklovlari.

Tayvanda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i odatda og'ir jinoyatlar yoki taniqli shaxslar bilan bog'liq ishlarda qo'llaniladi, bunda sud tergovgacha qamoqqa olishni og'ir holat yoki keraksiz holat deb hisoblaydi. Uy qamog'i sud jarayonini kutayotgan ayblanuvchilar uchun suda ishtirokini ta'minlash va guvohlar yoki dalillarga potentsial aralashuvni oldini olish uchun qo'llanilishi mumkin.

Tanqidchilarning ta'kidlashicha, uy qamog'i odamlarga jiddiy psixologik ta'sir ko'rsatishi mumkin, chunki bu ularni tashqi dunyodan samarali ravishda ajratib turadi va ularning ijtimoiy munosabatlarini cheklaydi. Uy qamog'ining uzoq davom etishi ruhiy salomatlik buzilishi va depressiyaga olib kelishi mumkin<sup>68</sup>.

Tayvanda ehtiyot chorasi sifatida uy qamog'i Jinoyat-protsessual kodeksi bilan tartibga solinadigan huquqiy tushunchadir. Uning qo'llanilishi ayblanuvchining jamiyat yoki davom etayotgan tergov uchun xavf tug'dirishi mumkinligiga ishonish uchun asosli asoslar mavjud bo'lgan holatlarda qo'llaniladi. Tayvandagi huquqiy tizim uy qamog'i ostida bo'lgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish uchun kafolatlarni o'z ichiga oladi, shu jumladan, sud nazorati, cheklangan muddat va yuridik maslahat olish huquqini ham beradi.

**Yaponiyada** uy qamog'i mustaqil ehtiyot chorasi sifatida deyarli qo'llanilmaydi. Biroq, qamoqqa olishning bir qancha alternatalari mavjud bo'lib, asosiylardan biri garov hisoblanadi.

<sup>67</sup> Wang, L. T. (2019). "Electronic Monitoring Reforms in Taiwan's Penal System." Taipei Law Journal, 45(2), 123-146.

<sup>68</sup> Phillips, S. D. (2003). "Between Assimilation and Independence: The Taiwanese Encounter the Modern World." Stanford University Press.



Garov quyidagi shartlar bajarilgan taqdirda taqdim etiladi:

- *Qochish xayfi yo'qligi*: Sud ayblanuvchi qochib ketishi mumkin deb hisoblaganda, garovga ruxsat bermaydi.
- *Dalillarni himoya qilish*: Agar ayblanuvchi dalillarni yo'q qilish yoki yashirish ehtimoli mavjud bo'lsa, garov rad etiladi.

*Ma'lum shaxslar bilan aloqa qilishni taqiqlash*: Garov berilgan taqdirda, sud qo'shimcha cheklovlar qo'yishi mumkin, jumladan, ma'lum shaxslar (masalan, guvohlar) bilan aloqa qilishni taqiqlash yoki mamlakatdan chiqib ketishni taqiqlash va pasportni topshirishni talab qilish<sup>69</sup>.

Yuqoridagilardan shuni xulosa qilish mumkinki, O'zbekiston JPKda nazarda tutilgan uy qamog'i ehtiyot chorasining deyarli barcha taqiq (cheklov)lari<sup>70</sup> Yaponiya jinoyat-protsessual qonunchiligiga ko'ra garov ehtiyot chorasiga qo'shimcha tarzda qo'llaniladi.

Shunday qilib, Yaponiyada garov qamoqqa olishga asosiy alternativa bo'lib, faqat qattiq shartlar bajarilgan taqdirda qo'llaniladi.

**Janubiy Koreyaning** Jinoyat protsessual qonuni (Criminal procedure act<sup>71</sup>) qiyosiy-huquqiy tahlili ham shuni ko'rsatadiki, uy qamog'i bizning qonunchiligimizdagi kabi alohida ehtiyot chorasi sifatida qo'llanilmaydi.

Uning o'rniga quyidagi turdagi ehtiyot choralari kengroq qo'llaniladi:

*Qamoqqa olish* — agar gumonlanuvchi qochib ketishi, dalillarni yo'q qilishi yoki guvohlarga ta'sir o'tkazishi mumkinligiga asoslar bo'lsa, sud tomonidan qamoqqa olish qarori chiqariladi.

*Mamlakatdan chiqishni taqiqlash* — tergov yoki sud jarayoni yakunlanguniga qadar gumonlanuvchining mamlakatdan qochib ketishining oldini olish uchun qo'llaniladi. Bu cheklovni oldindan qamoqqa olishsiz ham joriy qilish mumkin.

*Aloqa va harakatlanishni cheklash* — ba'zi holatlarda sud muayyan shaxslar bilan bog'lanishni, muayyan joylarga borishni yoki ma'lum tadbirlarda ishtirok etishni taqiqlash orqali cheklovlar o'rnatishi mumkin.

*Elektron braslet taqish* — Janubiy Koreyada bu usul ko'proq sudlangan shaxslarga nisbatan shartli ravishda ozodlikka chiqarilgan yoki qamoq muddati tugaganlar uchun qo'llaniladi. Elektron brasletlar shaxsning harakatlanishini nazorat qilish va uni belgilangan hududda turishini ta'minlash imkonini beradi.

Yuqorida bayon etilganlarga hamda olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda shuni aytish joizki, Uzoq sharq mamlakatlari huquqiy tizimining o'ziga xosligi jinoyat-protsessual qonunchiligida ham aks etgan bo'lib, xususan bizning jinoyat-protsessual qonunchiligimizda alohida ehtiyot chorasi sifatida qayd etilgan uy qamog'ini qo'llash mexanizmi aynan bir xil

<sup>69</sup> [The Ministry of Justice : Frequently Asked Questions on the Japanese Criminal Justice System // The Ministry of Justice : Japan's Criminal Justice System – From a Comparative Law Perspective](#)

<sup>70</sup> O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 242-1-moddasi // <https://lex.uz/docs/-111460#-2461137>

<sup>71</sup> CRIMINAL PROCEDURE ACT of South Korea // [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=46411&lang=ENG](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=46411&lang=ENG)



emas, biroq uning deyarli barcha elementlari sudga qadar ish yurituv bosqichida muayyan cheklov tarzida qo'llaniladi.

**REFERENCES:**

1. Criminal Procedure Law of the People's Republic of China. (2018), // [https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/#\\_Toc528744274](https://www.chinalawtranslate.com/en/criminal-procedure-law-2018/#_Toc528744274)
2. V.M.Xarzinova va M.M.Gutov, Особенности применения домашнего ареста в уголовном процессе зарубежных стран, ПРАВО И УПРАВЛЕНИЕ – журнал, № 11-2022 // <https://shorturl.at/tucbz>
3. Phillips S.D. "Between Assimilation and Independence: The Taiwanese Encounter the Modern World." Stanford University Press. (2003).
4. Code of Criminal Procedure, Taiwan (amended on January 15<sup>th</sup>, 2020). // <https://law.moj.gov.tw/ENG/LawClass/LawAll.aspx?pcode=C0010001>
5. Wang, L. T. (2019). "Electronic Monitoring Reforms in Taiwan's Penal System." Taipei Law Journal, 45(2), 123-146.
6. Phillips, S. D. (2003). "Between Assimilation and Independence: The Taiwanese Encounter the Modern World." Stanford University Press.
7. [The Ministry of Justice : Frequently Asked Questions on the Japanese Criminal Justice System](#) // [The Ministry of Justice : Japan's Criminal Justice System – From a Comparative Law Perspective](#)
8. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat protsessual kodeksi 242-1-moddasi // <https://lex.uz/docs/-111460#-2461137>
9. CRIMINAL PROCEDURE ACT of South Korea // [https://elaw.klri.re.kr/eng\\_service/lawView.do?hseq=46411&lang=ENG](https://elaw.klri.re.kr/eng_service/lawView.do?hseq=46411&lang=ENG)